

汉语成语与乌兹别克语俗语的对比研究

XITOIY TILIDAGI 成语 (chéngyǔ) LAR VA O‘ZBEK TILIDAGI MAQOL,
MATAL VA IBORALARNING TAQQOSLOVIY TAHLILI

Abdujabborova Xilola A’zamjon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy tiliga xos bo‘lgan 成语 (chéngyǔ) lar va o‘zbek tilida uchraydigan maqol, matal va iboraviy ifodalar o‘rtasidagi umumiylik va tafovutlar tahlil qilinadi. Mazkur tahlil tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik kontekstida olib borilib, ikkala xalqning fikrlash tarzi, qadriyatlari va tarixiy merosi bilan bog‘liq jihatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, til o‘rganish va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: 成语 (chéngyǔ), ibora, maqol, matal, taqqosloviy tahlil, tilshunoslik, lingvomadaniyat, frazeologiya, madaniy tafovut, xalq og‘zaki ijodi.

KIRISH

Xitoy tili va o‘zbek tili — biri sinotik, ikkinchisi turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, har ikki tilda barqaror frazeologik birliklar keng ishlatiladi. Xitoy va O‘zbekiston xalqlari uzoq tarixga, boy madaniyat va o‘ziga xos tilda ifoda vositalariga ega. Har ikki tilning frazeologik boyligi – milliy tafakkur, qadriyat va tajribaning tilga ko‘chgan shaklidir. Xitoy tilida keng qo‘llaniladigan “成语 (chéngyǔ)” iboralari asosan to‘rt belgidan iborat bo‘lib, ularning kelib chiqishi ko‘pincha qadimiy tarixiy voqealar, adabiy manbalar va afsonalarga borib taqaladi. O‘zbek tilidagi maqol va matallar esa og‘zaki xalq ijodining bir bo‘lagi sifatida, ko‘p hollarda nasihat yoki saboq beruvchi mazmunga ega bo‘ladi. Xitoy tilida bu soha "成语 (chéngyǔ) " nomi bilan mashhur bo‘lsa, o‘zbek tilida "maqol, matal, ibora" sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada ayrim tanlab olingan 成语 (chéngyǔ) lar va ularga ma’no jihatdan mos o‘zbek iboralari taqqoslanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

成语 (chéngyǔ) – odatda to‘rt belgidan iborat, tarixiy hikoya, afsona yoki qadimiy matnga asoslangan barqaror ibora bo‘lib, chuqur ma’no anglatadi. Ular xitoy xalqining donishmandligi, tajribasi va qadriyatlarini ifodalaydi. 成语 (chéngyǔ) lar xitoy tilidagi eng ixcham, lekin mazmunan boy iboralardir. Ular aksariyat hollarda quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

Tarixiy kontekst: Misol uchun, “画蛇添足” (huà shé tiān zú – ilonga oyog’ qo’shish) iborasi qadimgi voqeadan kelib chiqqan bo’lib, “keraksiz ortiqcha ish qilish” ma’nosini anglatadi.

Afsonaviy asos: “愚公移山” (yú gōng yí shān – Yugong tog’ni ko’chiradi) – qat’iyat va iroda timsoli bo’lgan mashhur afsona.

Sinfy struktura: Odatda 4 belgili bo’ladi, ammo bu qat’iy qoida emas. Ular tilshunoslik nuqtai nazaridan “frazologik birlik”, lekin madaniy jihatdan axloqiy kod, tarixiy eslatma yoki madaniy xotira sifatida ham qaraladi. Xitoy tadqiqotchilari 成语 (chéngyǔ)larni madaniyat, tarix va axloqiy qadriyatlar bilan bog’laydi, tarjimada esa “madaniy tenglashtirish” (cultural equivalence) zarurligini ta’kidlaydi. Yang Li (杨丽) o’zining “Chinese Idioms and Culture” asarida 成语 (chéngyǔ)lar haqida quyidagi fikrni ilgari surgan:

“成语 (chéngyǔ)lar faqat til vositasi emas, balki xitoy xalqining qadimiy tafakkuri, tarixiy xotirasi va axloqiy mezonlarining ifodasidir”.

Yana bir xitoy tadqiqotchilaridan biri Huang Zongying (黄宗英) o’z ilmiy ishlarida 成语 (chéngyǔ)lar madaniy tafakkurning kognitiv modeli ekanini ilgari suradi.

O‘zbek tilidagi iboralar – xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo’lib, qisqa, lo‘nda shaklda katta ma’naviy yuk ko’taradi. Maqollar, matallar, iboralar ham xalq tafakkuri mahsulidir. O‘zbek tilidagi maqollar va matallar:

Qisqa va mazmunli: “Ko‘p bilan bitta — zo‘r”, “Til — qopqon, so‘z — o‘q” kabi iboralar qisqa bo‘lsa-da, chuqur ma‘no yuklaydi.

Didaktik xususiyat: Ko‘pchiligi tarbiyaviy, nasihat sifatida aytiladi.

Folk omillar: Odatda og‘zaki ijod orqali avloddan avlodga o‘tadi.

Amaliy qo‘llanilishi: Kundalik nutqda keng ishlatiladi, ayniqsa ota-onalar, ustozlar tomonidan. O‘zbek tilshunoslari iboralarni xalq ijodining barqaror shakli, xalqning nutqiy tafakkuri va estetik didining mahsuli sifatida talqin qiladi. G‘. Karimov o‘zining “O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar” kitobida iboralarga quyidagicha ta’rif beradi:

“ O‘zbek iboralari xalq hayoti, ijtimoiy voqealar va axloqiy mezonlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan barqaror nutq birliklaridir”.

Tohir Malikov (frazologiya bo‘yicha o‘zbek tadqiqotchisi) o‘z ilmiy ishlarida o‘zbek iboralari barqarorlik, obrazlilik va xalq ruhiyatini aks ettirishini ta’kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPERIK TAHLIL

Quyida xitoy tilidagi ayrim 成语 (chéngyǔ)lar va ularga ma’no jihatdan yaqin bo’lgan ibora yoki maqollarni tahlil qilamiz:

成语 对牛弹琴 (duì niú tán qín)

Tarjimasi Ahmoqqa dono gap aytmoq.

O‘zbek tilidagi mos ibora Devorga gapirgandek.

成语 掩耳盗铃 (yǎn ěr dào líng)

Tarjimasi O‘zini aldab jinoyatni yashirmoq.

O‘zbek tilidagi mos ibora Boshini qumga tiqqan tuya.

成语 自相矛盾 (zì xiāng máo dùn)

Tarjimasi O‘z-o‘ziga zid fikr aytmoq.

O‘zbek tilidagi mos ibora Gapi gapiga to‘g‘ri kelmayapti.

成语 亡羊补牢 (wáng yáng bǔ láo)

Tarjimasi Xatolikdan keyin to‘g‘rilash – baribir foydali.

O‘zbek tilidagi mos ibora Yomon bo‘lganidan keyin aql ishlaydi.

成语 狐假虎威 (hú jiǎ hǔ wēi)

Tarjimasi Katta odam nomidan foydalangan kishi.

O‘zbek tilidagi mos ibora Arslon soyasida til chiqarish.

成语 杞人忧天 (qǐ rén yōu tiān)

Tarjimasi Asossiz vahimaga tushmoq.

O‘zbek tilidagi mos ibora Bo‘lmagan narsadan balo qidirma.

成语 井底之蛙 (jǐng dǐ zhī wā)

Tarjimasi Dunyoni tor doirada ko‘radigan, faqat o‘z atrofiga qarab fikr yuritadigan kishi.

O‘zbek tilidagi mos ibora Ko‘r ko‘zi bilan olamni o‘lchaydi.

成语 一举两得 (yī jǔ liǎng dé)

Tarjimasi Bitta ish bilan ikki maqsadga erishish yoki ikki tomonlama foyda olish.

O‘zbek tilidagi mos ibora Bir o‘q bilan ikki quyonni urish.

成语 百闻不如一见 (bǎi wén bù rú yí jiàn)

Tarjimasi Yuz marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan yaxshiroq

O‘zbek tilidagi mos ibora Eshitgandan ko‘ra ko‘rganing afzal.

成语 画饼充饥 (huà bǐng chōng jī)

Tarjimasi Non rasmi bilan ochlikni qondirish – foydasiz tasavvur bilan o‘zini ovutish.

O‘zbek tilidagi mos ibora Orzu bilan to‘yib bo‘lmaydi.

成语 鹤立鸡群 (hè lì jī qún)

Tarjimasi Toychoqlar orasida turna – odamlardan ajralib turadigan iqtidorli yoki chiroyli kishi.

O‘zbek tilidagi mos ibora El orasida yulduz, Ko‘zga ko‘ringan odam.

成语 望梅止渴 (wàng méi zhǐ kě)

Tarjimasi Olchaga qarab chanqovni bosish – faqat tasavvur bilan o‘zini ovutish.

O‘zbek tilidagi mos ibora Ko‘z bilan to‘yib bo‘lmaydi.

Bu misollar ikki xalq tafakkurida mazmuniy parallelizm mavjudligini ko‘rsatadi, lekin ularning ifoda shakli va tarixiy asoslari farqlidir.

NATIJALAR

Har bir 成语 (chéngyǔ) va o‘zbekcha ibora muayyan tarixiy, madaniy va ijtimoiy asosga ega. Xitoy 成语 (chéngyǔ)larining ko‘pchiligi qadimgi Xitoy tarixiy asarlari, jumladan Zuo Zhuan, Shiji va Han Shu kabi manbalardan olingan. O‘zbek iboralari esa xalq og‘zaki ijodi, ertak, rivoyat va maqollar bilan chambarchas bog‘liq.

Madaniy asos: Xitoy chéngyulari aksariyat hollarda aniq tarixiy voqealarga tayansa, o‘zbek iboralari ko‘proq hayotiy tajriba va xalqona donishmandlik mahsuli hisoblanadi.

Tabiat va hayvonot obrazlari: Har ikki tilda hayvon obrazlari ko‘p uchraydi, masalan: 虎 (yo‘lbars), 兔 (quyon), qush, bo‘ri, sigir va boshqalar.

Qahramonlik va qadriyatlar: Xitoy chéngyularida Konfutsiycha axloqiy me‘yorlar, jamiyatdagi ierarxik tartiblar ifodalanadi; o‘zbek iboralarida esa adolat, mehnat, sabr-toqat kabi qadriyatlar ustun turadi.

Tarjimaviy muammolar. 成语 (chéngyǔ)larni bevosita tarjima qilish — so‘zma-so‘z tarzda o‘zbek tiliga o‘tkazishga urinish — ko‘pincha ma‘noni yo‘qotadi. Shuning uchun tarjimon ekvivalent ifodalarni izlashga majbur bo‘ladi. Lingvomadaniy tafovutlar tarjimada qiyinchilik tug‘diradi.

So‘zma-so‘z tarjimaning kamchiligi. Masalan, “画龙点睛” (ajdarhoga oxirgi nuqtani qo‘yish) degan iborani “Ajdahoga nuqta qo‘yish” deb tarjima qilish asl ma‘noni yetkazmaydi. Bu iboraning asl ma‘nosi quyidagicha:

Aslida biror ishni yoki fikrni eng kerakli joyida, eng muhim jihatini to‘g‘ri urg‘ulab, unga hayot, mazmun, kuch berish demakdir.

Yaxshi yozilgan matnga yakuniy, eng muhim jumlaning qo‘shish.

San’atda, notiqlikda yoki har qanday ishda eng muhim detallar orqali mukammallikka erishish.

Bu iboraga o‘zbekcha yaqin maqol yoki iboralar quyidagilar:

“Ko‘zni ochadigan gapni aytdi.”

“Gapning tag ma‘nosini aytdi.”

“Eng kerakli joyda nuqtani qo‘ydi.”

“Ustiga-ustak bo‘ldi.” (ba‘zan salohiyatli ishlarga qo‘shilgan yakuniy zarb)

Ekvivalent izlash. Tarjimon ko‘pincha funksional ekvivalent topishga harakat qiladi. Masalan, “饮水思源” – “Suv ichgan joyni unutma” degani o‘zbekchada “Ko‘chat ekkanni

esla” deb berilishi mumkin. "饮水思源" iborasi — "suv ichayotganda manbasini eslash" — insonning o‘z ildizlarini, kelib chiqishini va unga yaxshilik qilganlarni unutmasligi kerakligini bildiradi. Bu ibora dastlab shimoliy Zhou davrida yashagan yozuvchi Yu Xin (庾信)ning "Zheng Diao Qu" (徵調曲) asarida uchraydi: "落其实者思其树，饮其流者怀其源" — "Mevasini yegan daraxtini eslaydi, oqimini ichgan manbasini eslaydi". Shuningdek, "饮水思源" iborasi Xitoyda ko‘plab joylarda, masalan, maktablar, suv inshootlari va yodgorliklarda yozuv sifatida uchraydi. Bu insonlarni o‘z ildizlarini eslashga va minnatdorchilik bildirishga undaydi.

Kontekstual moslashtirish. Ba’zi hollarda ibora o‘rniga mazmunni tushuntirish ham kerak bo‘ladi. "Iboralarni kontekstual moslashtirish" (contextual adaptation of idioms) deganda, bir tildagi ibora yoki frazeologik birlikni boshqa tilga so‘zma-so‘z emas, balki uning ishlatilgan kontekstiga, maqsadiga va vaziyatiga qarab moslashtirib tarjima qilish yoki ifodalash nazarda tutiladi. Bu usul ayniqsa iboralarning madaniy, tarixiy yoki metaforik mazmuni boshqa tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri mavjud bo‘lmagan hollarda qo‘llaniladi.

Oddiy qilib aytganda:

So‘zma-so‘z tarjima — iboraning har bir so‘zini alohida tarjima qilish.

Kontekstual moslashtirish — iboraning umumiy ma’nosini saqlagan holda, uni o‘quvchi tushunadigan shaklda ifodalash.

Xitoycha 纸上谈兵 (zhǐ shàng tán bīng)

So‘zma-so‘z Qog‘ozda urush haqida gaplashmoq

Ma’nosi Nazariyada yaxshi, amalda esa foydasiz

Kontekstual moslash:

“Kitobda bor-u, ishda yo‘q” yoki “Amalda ish ko‘rsatmagan bilim”

O‘zbekcha “O‘tin yoqqan qo‘l kuyar”

So‘zma-so‘z xitoy tiliga tarjimasi 烧柴的手会被烫

Xitoy tilida kontekstual mos ekvivalent

自讨苦吃 (zì tǎo kǔ chī) – O‘zi azobga sabab bo‘lish.

Kontekstual moslashtirish nega muhim?

Kontekstual moslashtirish:

Iboraning asosiy ma’nosini saqlaydi.

Tarjimani madaniy jihatdan to‘g‘ri qiladi.

O‘quvchi uchun tushunarli va tabiiy bo‘lib chiqadi.

So‘zma-so‘z tarjima ko‘pincha hazil, kinoya, madaniy obrazlarni buzib yuboradi, bu esa notabiiy va tushunarsiz tarjimaga olib keladi.

XULOSA VA MUNOZARA

成语 (chéngyǔ)lar va o‘zbekcha iboralar — ikki xalqning og‘zaki va yozma madaniyatida chuqur ildiz otgan, tilni boyituvchi vositalardir. Xitoy va o‘zbek tillaridagi iboraviy ifodalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar ularning xalqona tafakkuri, madaniyati, tarixiy voqeliklarga bo‘lgan munosabati bilan bevosita bog‘liq. Ularni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tarjimashunoslikda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali xalq tafakkurining o‘ziga xosliklarini, qadriyatlarini va madaniy kontekstini anglash mumkin. Kelgusida ushbu sohada yanada kengroq tahlillar olib borish, tarjimaviy yondashuvlar ishlab chiqish muhim vazifadir. Shuningdek bu sohada kompyuter lingvistikasi, korpus tahlili va tarjimaviy algoritmlarga asoslangan tadqiqotlar olib borish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 《现代汉语成语词典》 – Beijing Language and Culture University Press, 2015.
2. 《现代汉语成语词典》 – Beijing Language and Culture University Press, 2020.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
4. Xitoy tili grammatikasi (o‘quv qo‘llanma) – Tashkent Davlat Sharqshunoslik Instituti, 2010.
5. Karimov G’. – “O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar” (ilmiy maqolalar to‘plami), 2012
6. Yang, L. – “Chinese Idioms and Culture”, Foreign Language Teaching Press, 2018.
7. Komilov N. – “Xalq og‘zaki ijodi va qadriyatlar”, Toshkent, 2016.
8. 刘大为 – 《汉语成语的文化内涵与翻译策略》, 外语教学与研究出版社, 2017.